



SOCIAL- PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF ADOLESCENT BEHAVIORAL DEVIATIONS

Bozarboyeva Namuna Davronbek's daughter
ASU. General Psychology
Teacher of the Department

O'SMIRLAR XULQIY OG'ISHLARINING IJTIMOIIY- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Bozarboyeva Namuna Davronbek qizi
ADU.Umumiy psixologiya kafedrası o'qituvchisi.

Annotation. It is said that today's teenagers have some physical, mental and political advantages over their predecessors. They are expected to show earlier sexual maturation, socialization, and mental growth. The transition from adolescence to adolescence usually begins in the 5th grade. This period is explained by the concept of transition.

Keywords: moral deviation, suicide, the process of socialization, morality

Annotatsiya. Hozirgi o'smirlar o'tmishdoshlariga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan bir muncha ustunlikka egaligi yoritilgan. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o'sish oldinroq namoyon bo'lishi ko'zda tutilgan. O'quvchilarda o'smirlik yoshiga o'tish asosan 5-sinflardan boshlanadi. Bu davr o'tish davri tushunchasi bilan izohlanadi.

Kalit so'zlar: xulqiy og'ish, suidsit, ijtimoiylashuv jarayoni, axloq

Jamiyatimizda hozirgi kunda o'smirlarga qaratilayotgan e'tibor, davlatimiz rahbari tomonidan yosh avlodni shakllantirishning dastlabki pallasida ta'lim-tarbiya masalasiga alohida e'tibor qaratilayotganligi yosh avlodning yutug'idir. Har qanday mamlakatning ertangi taraqqiyoti uning kuchli bilim va salohiyatga ega, zamonaviy bilimlarni puxta o'zlashtirgan yoshlar belgilab beradi. Ularni global rivojlanishning barcha sohalari va tarmoqlariga hayotbaxsh kuch bag'ishlovchi shiddatli lokomativ desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Bugun dunyo aholisining 30 foizdan ko'p qismini yoshlar tashkil etmoqda. Ushbu foizlarning ko'p qismini o'smirlar tashkil qiladi. O'smirlar haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lish va amaliyotda qo'llash yosh avlod tarbiyasiga berilgan e'tibor desak mubolag'a bo'lmaydi.

O'smirlik davri 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo'lgan davrni tashkil etadi. Hozirgi o'smirlar o'tmishdoshlariga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan bir muncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o'sish oldinroq namoyon bo'lmoqda. Aksariyat o'quvchilarda o'smirlik yoshiga o'tish, asosan, 5-sinflardan boshlanadi. Endi o'smir bola emas biroq katta ham emas ayni shu ta'rif o'smirlik davrining muhim harakteridir.



Inson axloqi to'g'risidagi ilmiy tasavvurlar XX asrning boshlarida bioxevioristlar uni psixologiya fanining predmeti deb e'lon qilgan vaqtdan boshlab, ayniqsa, shiddatli rivojlanish tusini oldi. Dastlab axloq tushunchasi ostida shaxsning istalgan tashqi kuzatiluvchi, "rag'bat—reaksiya" sxemasi bo'yicha ishlaydigan reaksiyasini (harakatlanuvchan, vegetativ, nutqiy) tushundilar. Empirik ma'lumotlarning to'planish darajasi bo'yicha inson axloqining tabiati yanada chuqurlashdi. 1931 yilda esa axloq psixologiyasining asoschilaridan biri Djon Uoxon axloq to'g'risida "tuxumni mahsuldor qilish lahzasida dunyoga keluvchi va organizmning rivojlanishi darajasi bo'yicha yanada murakkablashib boruvchi faollikning uzluksiz oqimi" haqida fikr bildirgan. Axloqning zamonaviy tushunchasi tashqi rag'batga reaksiyalar to'plami doirasidan ancha chetga chiqadi. Shunday qilib, psixologik lug'atda ko'rsatilishiga axloq "tirik mavjudotga xos bo'lgan, ularning ichki va tashqi faolligi vositasidagi atrof-muhit bilan o'zaro ta'siridir". Inson axloqining boshqa muhim xususiyati - bu uning nutqiy boshqaruv va maqsad qo'yishi bilan mustahkam aloqasi hisoblanadi. Yaxlit olganda insonning axloqi uning ijtimoiylashuvi jarayonini - jamiyatga integratsiyasini aks ettiradi. Ijtimoiylashuv, o'z navbatida, individual xususiyatlarni hisobga olgan holda ijtimoiy muhitga moslashishni ko'zda tutadi. Hammamiz ham deyarli har kuni ijtimoiy istalmagan axloqning turli-tuman ko'rinhlari - tajovuzkorlik, zararli odatlar, qonunga zid harakatlar bilan to'qnashamiz. Biz uchun muhim bo'lgan "shaxsning og'ishgan xulqi" tushunchasini ta'riflashga o'tishdan oldin biz psixologik ko'rinishlarni baholash etalonini berishimiz lozim. Ko'pgina fanlarda ko'rinishlarni "me'yoriy" va "anomal"ga bo'lish qabul qilingan.

J.Xodfruaning haqqoniy e'tirofi bo'yicha "Qanday axloqni me'yoriy deb hisoblash mumkin?" degan savol inson axloqini, shu jumladan, og'ishgan xulqni tushuntirish uchun markaziy hisoblanadi. "Normal", "anomal" axloq tushunchasining ma'nosiga qat'iy ta'rif berish murakkab, ular orasidagi chegara esa o'ta noaniq. Shunga qaramay, ilmda va kundalik hayotda ushbu tushunchalardan birgalikda foydalaniladi. Bunda normal axloq atamasi ostida, qoidadagidek, xafagarchilik bilan bog'liq bo'lmagan, shu bilan birgalikda, ko'pchilik odamlar uchun xarakterli bo'lgan me'yoriy-ma'qullangan axloq tushuniladi.

Shubhasiz, axloqning aniq shakli (masalan, chekish) me'yoriy qabul qilinishi mumkin, qachonki u ko'pchilik odamlarda uchrasa. Haqiqatan, O'zbekistonda chekishni xulq og'ishishiga tegishli deyish o'rinsiz bo'lardi, sababi katta yoshli aholi o'rtasida chekuvchilar chekmaydiganlarga nisbatan ehtimol ko'proqdir. Statistik mezon ifodalanish va hayot uchun xatar darajasi bo'yicha axloqning sifat-miqdoriy bahosi bilan uyg'unlashadi. Masalan, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish aqlli chegaralarda (katta bo'lmagan doza va tezlikka) me'yoriy ko'rinish deb tan olinadi, biroq uni suiste'mol qilish og'ishganlikni anglatadi. Boshqa tomondan odamning o'zi yoki atrofdagilar hayoti uchun to'g'ridan-to'g'ri xavf tug'diruvchi axloq, uning tezligi, ba'zan esa ifodalanganlik darajasidan qat'iy nazar og'ishish sifatida baholanadi, masalan, suitsid yoki jinoyat.

Hech bir inson jinoyatchi yoki xulqi og'ishgan bo'lib dunyoga kelmaydi, ota-onaning tarbiyasi, atrof muhitdagi odamlarning hamda ijtimoiy muhitning ta'siri natijasida tarbiyalanadi. Hozirgi kunda ota-



onalar uy-joy qilaman deb farzandlarini bobo, buvilarini, xola, tog'alarini qaramog'iga tashlab, chet davlatlarga ishlagani ketishmoqda. Qarindoshlarining qaramog'ida qolgan, aynan ota-onasining mehr-muhabbatiga, e'tiboriga muhtoj bo'lgan farzandlarning xulqiy og'ishlari kelib chiqmoqda.

Farzandining turli xil jinoiy guruhlariga qo'shilib qolganligini eshitgan, chetga ishlagani chiqib ketgan ota-ona qarindosh-urug'laridan xafa bo'ladi. Farzandlarimni ishonib topshirib ketsamu qaraganilar shumi deb nolib xam qo'yishadi, ota-ona farzandiga o'zi bermagan mehrni, e'tiborni xola, amma, toga, buvi, bobo qayerdan bersin. Axir farzandni dunyoga ota-ona keltirganku, qarindosh urug'larmasku. Qachonki ota-ona o'z farzandining tarbiyasiga mas'uliyat bilan yondashadi keyingina o'zi kutgan natijani oladi, farzand tarbiyasiga mas'uliyat bilan yondashish deganda nima tushuniladi, kimlardur mas'uliyat deganda qattiqqo'llik yoki qattiq nazoratni tushunishi mumkin. O'smir yoshidagi farzandining tarbiyasiga mas'uliyat bilan yondashish bu o'sha o'smir yoshidagi farzandining yoshiga mos xarakter xususiyatiga, psixologik tarafdin olib qaraganda farzandining psixologik ichki o'zgarishlariga, ichki kechinmalaridan kelib chiqib, farzandi bilan do'stona munosabatda bo'lib uning aynan krizis yosh davriga qarab ota-ona o'smir yoshidagi nafaqat o'smir yoshidagi balki turli yosh davrlari krizislarini e'tiborga olgan holda muomila qilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. L.M.Zyubin «Tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan olib boriladigan o'quv-tarbiyaviy ishlar». T: O'qituvchi 1997y.-216b.
2. O.Кернберг "Агрессия при расстройстве личности". М: Независимая фирма "Класс"., 1998г.-368 б.
3. N.G.Kamilova «Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi» T., ТДПУ, 2013
4. G.Kamilova, L.Nigmatulina, N.Atabaeva, L.Inagamova "Talaba yoshlar orasida addektiv xulq psixoprofilaktikasi" T: KĖИХМК, 2013-95Бб.
5. N.G.Kamilova, L.Nigmatulina, N.Atabaeva, L.Inagamova "Talaba yoshlar orasida suitsidal xulq psixoprofilaktikasi" T: KĖИХМК, 2013-103б.
6. N.G'. Kamilova "Muammoli o'smir". Tashxis,tadqiqot metodlari. T. РБИММ 2006y-103б.
7. Е.Н.Волкова, Т.Н.Балашова, "Защита детей от жестокого обращения". Питер: 2007.